



2023/5

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 5, 2023
May

<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 29.05.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Ergashev J. Yu. Sardobalarning xizmat ko'rsatish tizimidagi ahamiyati	7
	Hasanova N. N. Mustaqillik yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar	12
	Kazakova M. D. O'zbekistonda gender tengligining qonunchilik asoslari va uning takomillashtirilishi	15
	Курбонова М. Б. Дўппи миллийлик тимсоли сифатида	20
	Ochilov A. T. The history of archeological research in bukhara Oasis	25
	Шамсиева З. А. Бухоро воҳаси никоҳ тўйи тизимида совчилик удумлари: анъанавийлик ва замонавийлик	31
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Abdullaeva G. V., No'monova R. N. Lof she'rlar poetikasi va ularning badiiy-estetik funksiyasi	36
	Айтбаев Д. Т. Ўзбек тилида полисемик қўшма гаплар тадқиқи	43
	Bakiyeva X. S. Ot so'z turkumini o'rgatishda media vositalaridan foydalanish	46
	Eshonkulova G. Yu. O'zbek auditoriyasining talabarlari uchun ingliz tili darsliklarida antroposentrik maqollarning o'rni va ahamiyati	50
	G'ulomova X. Til sathlarini o'rgatish orqali orfoepik, orfografik, punktuatsion va uslubiy ko'nikmalarni shakllantirish	54
	Ismailova M. The role of communicative-active approach in developing strategic competence of students through problem-solving technology	58
	Kuchkarova J. Maqollarni tipologik usullarda o'rganish va o'zbek, qozoq, rus tilidagi maqollarning tahlili	63
Нурматова Ш. А. Хитой халқ оғзаки ижодида эртак жанри хусусиятлари (XX ва XXI аср бошлари)	67	
Parmonova N A. A history of women's prose in english literature	72	
Қобилова А. А. Ўзбек болалар шеърлятида юморнинг лингвопозтик ва коммуникатив хусусиятлари	76	
Рўзиева М. Ё. Адабиётда рамз тушунчаси ва ранг символикаси	81	
Садыкова Р. Р. Совершенствование информационной культуры при изучении русского языка	85	
Umarova F. B. Ingliz va o'zbek nasrida ayol obrazi evolutsiion bosqichlari	89	



Sidiqova D. Sh. Talabalarning kasbiy kompetentligi takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari	245
Toshtemirova S. A. Tarix fanlarini tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi asosida o'qitish samaradorligi	249
Tugalov F. Q. Fizikani tabiiy fanlararo aloqadorlikda o'qitishda talabalarning ilmiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	256
Tuzikenova J. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishning ahamiyati	260
Urazbaeva Dilnoza, Ruzimbaevna O'quvchilarda chet tilini o'rgatishning ijtimoiy pedagogik- psixologik xususiyatlari	264
Умаров Б. Ж. Талабаларда маънавий-маърифий ишлар жараёнида миллий тафаккурини шакллантириш	268
Xasanova N. I., Kurbanova A. Dj. Biologiya yo'nalishi talabalariga analitik kimyoni o'qitishda o'ziga xos yondoshish	272
Xo'jamqulova N. R. EGRA tadqiqotini tashkil etish va topshiriqlarini tayyorlash namunalari	277
Хабибова Г. Г. Мактабгача таълимни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари	282
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Abdullayeva D. U. Ota-ona va farzand o'rtasidagi destruktiv munosabat bolalarda agressiv xulq shakllanishi omili sifatida	286
Abdurasulov R. A. Motivatsiyani o'rganishda motivatsion konsepsiyalarining ahamiyati	290
Avlayev O. U. Shaxs kamolotida intellektual faoliyatining individual-tipologik farqlari	294
Askarova N. A. Yaqin kishisini yo'qotgan bolalar va o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatishning o'ziga xosligi	299
Buriyeva K. E., Mirkosimova H. M. O'smirlarni mustaqil fikrlash jarayonining psixologik asosi	304
Hakimova F. X. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda moslasha olmaslik xususiyatlaridan tortinchoqlikning turli ko'rinishlari	307
Ismatova D. T. Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili	311
Jabborova M. A. Talabalar akademik o'zlashtirishining nazariy-metodologik talqini	315
Jalilov H. N. Oila va kasb muvozanatining professor-o'qituvchilar ish samaradorligiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	324
Madrimova F. B. Yoshlarda musiqiy qobiliyatlar namoyon etilishining psixologik imkoniyatlari	331
Ostanov Sh. Sh. Kreativlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	336
Пронин Р. О. Актуальность исследований зрительных иллюзий	340
Qarshiyeva D. S. Umumta'lim maktablari pedagoglarida kasbiy stress va refleksivlik orasidagi aloqadorlik	344
Ravshanova M. M. Talabalarda ekonometrika fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati	350
Раджабова З. М. Шахсада касбий англашни шаклланиши	355
Sattarova Sh. Q. Talabalik yoshida pozitiv tafakkurni rivojlantirishning xususiyatlari	358
Turaqulov L. T. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi muammosining nazariy tahlili	365
Shamshetova Anjim Karamaddinovna Orolbuyi mintaqasi aholisining ijtimoiy-psixologik ahvoli	369
Rasulova F. F. Zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalarga psixologik xizmatni tashkil etish	373
Maxmudova D. A. Odam savdosi jabrdiydalarida xavotirlanishni qaror qabul qilish xususiyatlariga ta'sirining psixologik xususiyatlari	378
Akramov M. R. Axloqiy ong va tabiatga munosabat o'rtasidagi o'zaro koppelatlar psixologiyasi	384
Turgunov A. A. Dermatoglyphics	390
Toshboltayeva N. I. Yoshlar bilish faolligini taraqqiyotida ta'limning o'ziga xosligi	394



TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Sidiqova Dilora Shavkatovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
<http://orcid.org/0000-0002-2066-204X>

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ilmiy-metodik imkoniyatlari, o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan. Bugungi kunda talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda olimlarning ilmiy ishlari va ularning qarashlari ifodalangan. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining izohlangan. Talabalarning mustaqil ta'lim va o'z ustida ko'proq ishlash natijasida kasbiy kompetentligini takomillashtirib boradi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy va shaxsiy sifatlar, fanlararo kompetensiyalar, tayanch kompetensiyalar, o'z-o'zini baholash, axborot-uslubiy ta'minoti, kasbiy tayyorgarlik.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Сидикова Дилора Шавкатовна
докторант Бухарский государственный университет

Аннотация: в данной статье описаны научно-методические возможности повышения профессиональной компетентности студентов, особенности учебного процесса. Сегодня научные труды ученых и их взгляды выражаются в повышении профессиональной компетентности студентов. Разъяснены понятия компетентности и компетенции. Студенты повышают свою профессиональную компетентность в результате самостоятельного обучения и больше работают над собой.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональные и личностные качества, междисциплинарные компетенции, базовые компетенции, самооценка, информационно-методическое обеспечение, профессиональная подготовка.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF IMPROVEMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Sidikova Dilora Shavkatovna
Doktoral student of Bukhara State University

Abstract: this article describes the scientific-methodical possibilities of improving the professional competence of students, the specific features of the teaching process. Today, the scientific works of scientists and their views are expressed in improving the professional competence of students. The concepts of competence and competence are explained. Students improve their professional competence as a result of independent education and more work on themselves.

Key words: competence, competence, professional competence, professional and personal qualities, interdisciplinary competences, basic competences, self-assessment, informational and methodological support, professional training.

Kirish. Kompetensiya atamasini ilk bor Amerika Qo'shma Shtatlari tilshunosi N.Xomskiy tomonidan 1965-yil Massachusetts texnologiya institutida shakllandi. 1996-yilda Bern shahrida Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha bo'lib o'tgan simpoziumda "kompetentsiya" tushunchasi "o'quv", "kompetentlik" tushunchasi "qobiliyat", "mahorat" singari tushunchalar qatoriga kiritilgani ta'kidlandi. Xorijiy mamlakatlarda kompetentsiyaviy ta'lim tizimi bo'yicha Buyuk Britaniyada shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiya, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalar shakllantirilgan. Avstriyada shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyalar shakllantirilgan.

Niderlandiyada kelajakka intilish ko'nikmalarini rivojlantirishni mo'ljal qiladigan strategik kompetentsiyalari shakllanganligi o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan.

Xorijlik olimlardan A.Belkin va V.Nesterovlar kompetentsiyani ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zurruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalari, kompetentlikni, kompetentsiyani samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta'riflagan. V.Vvedenskiy tomonidan kompetentlik – bu qandaydir shaxsiy tavsif, kompetentsiya aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmuasi, deb ta'riflangan. A.Xutorskiy fanga oid kompetentsiyalarda “konkret ta'rifga va konkret o'quv predmeti doirasida shakllantirish imkoniyati va oltita tayanch kompetentsiyalari tahlil qilingan.

XXI asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyada Jak Delor “Ta'lim: yashirin xazina” nomli ma'ruzasida ta'lim tayanadigan to'rtta ustunga ta'rif beradi:

- bu bilishni o'rganing;
- qilishni o'rganing;
- birgalikda yashashni o'rganish;
- yashashni o'rganing. Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida, xususan, Rossiya federatsiyasida kompetentsiyaviy ta'lim talabalarida kompetentsiyalarni shakllantirishda fanlararo kompetentsiyalar, fanga oid kompetentsiyalarga bo'linadi: Qozog'iston Respublikasida shaxsiy natijalar, tizimli–faoliyatiga ko'ra natijalar va o'quv fanlari bo'yicha natijalar kompetentsiyalari o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan.

Metodlar. Mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy pedagogik tadqiqotlar ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'qitishning afzalligi, o'quvchilarda hosil bo'ladigan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda foydalanishni o'rgatishning samaradorligi aniqlangan. N.Turdiyev, Y.Asadov, S.Akbarovalarning “Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari” nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasida fanga oid va tayanch kompetentsiyalarni shakllantirishda darslarga qo'yiladigan talablar, usul, metod hamda pedagogik texnologiyalardan namunalar keltirilgan. S.Temurovning “Bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari” monografiyasida pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan kompetentsiyaning bilim va vaziyat orasidagi aloqani o'rnatish imkoniyatiga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini qisqacha yoritib o'tish mumkin. Ularga:

- 1) ijtimoiy kompetentlik;
- 2) maxsus kompetentlik;
- 3) shaxsiy kompetentlik;
- 4) texnologik kompetentlik;
- 5) ekstremal kompetentliklar kiradi.

N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi, bu ham talabning amaliyot jarayonida va oliy ta'limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi.

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;

- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:



Natijalar

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

O'zini o'zi samarali baholash omillari:

1. O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish).
2. Shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash).
3. O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalariga ega bo'lishi kerak, ulardan to'g'ri foydalanilganda darsga tayyorgarlik ko'rish vaqtini tejash, ishlarni va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tekshirish uchun vaqtni oqilona taqsimlash, talabalarning o'z fanlariga qiziqishini oshirish, yuqori natijalarga erishishga undashi kerak. Zamonaviy axborot xizmatlari o'qituvchiga darsni yanada samarali qilishga, talabalar bilan birgalikda tadbirlar yanada qiziqarli qilishga yordam

beradi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlovchi axborot-uslubiy ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy amaliy dasturiy vositalar orqali amalga oshirish mumkin. Mazkur axborot-didaktik materiallardan boshlang'ich ta'lim yo'nalishida foydalanish orqali talabalarining mustaqil ta'limini samarali tashkil qilishga xizmat qiladi. Talabalar o'z-o'zini baholash orqali o'zining nuxsonini o'zi bilib oladi va shu nuxsonini o'zi bilgan holda buni tuzatishga harakat qiladi. So'ngra o'z ustida ko'proq ishlaydi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarining kasbiy tayyorgarligi orqali kompetentligini rivojlantirib boradi. Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma'lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo'lib, subyektning qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T: 2016. –147 b.

3. Muslimov N.A., Abdullaeva Q. Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari. / "Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. -Toshkent: TDPU, 2012. 26-28-b.

3. Ochilov Shokir Baxtiyorovich «Fizikani fanlararo o'qitishda o'quvchi ekologik kompetentsiyasini rivojlantirish texnologiyalari» Samarqand - 2021

4. Sidiqova, D. (2021). «МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ» В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ СТУДЕНТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ НАУКИ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 3(3).

5. Shavkatovna, S. D. (2021). Developing Students' Professional Competencies in Distance Learning. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(10), 152-155.